

Aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan Davlat umumta'lim
maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Nasirova Ziroatning **Adabiyot** fanidan
1 soatlik ochiq dars ishlanmasi.

Toshkent 2015

Mavzu: X.To'xtaboyev "Sariq devni minib" romani.

Dars maqsadi:

- a) Ta'limiy maqsad: Asardan keltirilgan parchani o'qib tahlil qilish.
- b) Tarbiyaviy maqsad: O'quvchilarni yozuvchi hayotidan ibrat olishga, asar qahramonining xatti-harakatlaridan to'g'ri xulosa chiqarishga, mehnat qilmay, ilm o'rganmay turib obro' - e'tiborga erishib bo'lmaslikni tushuntirish.
- v) Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilar hamjihatligini oshirish, og'zaki nutqni o'stirish, ularning dunyoqarashini kengaytirish.

Darsning uslubi: interfaol.

Darsning shakli: Guruhlarda ishlash.

Darsning jihozi: tarqatma materiallar, darslik, yozuvchi asarlari, mavzuga oid slayd.

Dars shiori: "Bilimsizlik pand beradi"

Darsning borishi:

Tashkiliy qism:

- O'quvchilar bilan salomlashish.
- Davomatni aniqlash.
- Darsga hozirlik ko'rish.
- Siyosiy va ma'naviy daqiqa tashkil qilish.
- O'quvchilarni guruhlariga ajratish.

Sinf o'quvchilari ikki guruhga bo'linadi:

1-guruh: "Yosh adabiyotchilar"

2-guruh: "Yosh tanqidchilar"

I bosqich:

O'tilgan mavzuni takrorlash maqsadida "Zanjir" usulidan foydalaniladi. Bunda o'quvchilar xuddi zanjirga o'xshab X.To'xtaboyevning hayoti va ijodiga doir bittadan ma'lumotni ketma- ketlikda aytadilar. Masalan:

1933 yil- Farg'ona viloyatida Katta tagob qishlog'ida tavallud topdi.

1949 yil- Qoqon pedagogika bilim yurtini tugatdi.

1955 yil- Toshkent Davlat universitetini tugatdi, so'ng Farg'onaga ketdi.

1958 yil- Toshkentga qaytib keldi.

1961 yil- Ilk hikoyalar to'plami nashrdan chiqdi "Shoshqaloq"

1964 yil- "Sir ochildi" qissasi.

1968 yil- "Sariq devni minib" romani.

1973 yil- "Sariq devning o'limi" romani.

U "Gulxan", "Yosh kuch" jurnallarida faoliyat ko'rsatdi.

1991 yil- O'zbekiston Xalq yozuvchisi bo'ldi.

II bosqich:

Yozuvchining hayoti va ijodiga bag'ishlangan slayddan foydalaniladi.

Yanga mavzu bayoni: “Sariq devni minib” asarini o'qish va tahlil qilish. O'quvchilar “Bumerang” usuli yordamida darslikdagi asardan berilgan parchani o'qib o'rganadilar.

III bosqich:

Mustahkamlash.

Ushbu bosqichda o'quvchilar o'z guruhlarida taqdimot tayyorlaydilar.

1 guruhga - Hoshimjon timsoliga tasnif berish.

2 guruhga – Asarda berilgan tabiat va shahar, qishloqlarni tasvirlash.

Taqdimotlar quyidagicha bo'lishi mumkun:

1 guruhtan:

Hoshimjon asarning bosh qahramoni. 6-sinf o'quvchisi. Asar bilan tanishar ekanmiz ko'z o'ngimizda uning jindak ayyor, jindak lofchi, jindak qo'rqq va quv bola ekanligi ko'zga tashlana boradi. Biroq u butun vujudi bilan haqqoy va romantik. U qaysi ishga qo'l urmasin, sidqidildan ado etishga, maqtoqlar eshitishga intiladi. Uning harakat maydoni keng, faoliyati rang-barangdir. U qayerga bormasin, kimlar bilan uchrashmasin, biyron tili harakatga keladi. Uning oynoqi, xiyla mug'ombir ko'zlari doim chaqnab turadi. Hoshimjon o'zining soddaliklari, quvliklari va sho'xliklari bilan kitibxonlar tabassumining so'nishiga yo'l qo'ymaydi. Uning o'ziga yarasha shakllanish tarixi ham bor. U o'qishda ilg'or bolalardan emas. Yaxshi o'qiyapman deb oyisini aldaydi. Biroq bu ayblari uchun o'quvchilarda Hoshimjonga nisbatan yomon tuyg'u uyg'onmaydi.

2 guruhtan:

...Yo'l yurdim, yo'l yursam ham mo'l yurdim, bir mahal mundoq qarasam, sahra-yu biyobonga kelib qolibman. Bir tomoni poyoni yoq cho'l. Qarasang ko'zing jimirlab ketadi. Yantog'-u sho'radan boshqa hech narsa ko'rinmaydi...

Biroz yurgach, bog'-rog'lar yashnab yotgan joyga kelib qolibman. Tavakkal qilib daraxtzorlar orasidan yurib boraverdim. Goh olmazor, goh shaftolizor, goh tokzorlar orasidan o'tib borardim. ..

IV bosqich:

Yakunlash:

Ushbu bosqichda o'quvchilar o'zlari o'rgangan parcha yuzasidan ikkitadan savol tayyorlaydilar.

1. Hoshimjon qalpoqchani qayerdan topadi?
2. Hoshimjon qalpoqni dastlab qayerda va qanday sinadi?
3. Hoshimjonni sinfkom qilib saylamoqchi bo'lib turganlarida nega

amalga oshmay qoldi?

4. Qaysi voqeadan so'ng Hoshinjon safarga otlandi?
5. Hoshimjonning "agranomlik" faoliyatiga qanday qaraysiz?
6. Brigada a'zolari nima uchun kulib yuborishdi?

Savollarga javob berish tartibi quyidagicha: har bir guruhdan savollar o'qib eshittiriladi. Kim birincha bo'lib qo'l ko'tarsa o'sha javob berishi lozim. Shundan so'ng barcha fikrlarni umumlashtirib, o'quvchilarga asarning mazmun- mohiyatini aniqlash maqsadida "FSMU" texnologiyasini bajarish topshiriladi.

F – fikr berish

S – sababini ko'satish

M- misol keltirish

U- umumlashtirish.

O'quvchilar asar bo'yicha o'z fikrlarini navbatma- navbat bayon etadilar. Shundan so'ng o'qituvchi o'quvchilar fikrini umumlashtiradi.

Asardagi hamma voqealar Hoshimjonning xatti- harakati, qarashlari, fe'l-atvorining ochilishiga yo'naltirilgan. Bir qaraganda uning harakatlari, qilmishlari tartibsiz, pala- partishday tuyuladi-yu, ammo asl g'oyani ochishga qaratilgan. Bu g'oya o'qimasdan, chuqur bilim olmasdan zamonning haqiqiy kishisi bo'lish mumkin emas, degan fikr juda ko'p misollar, voqealar, sarguzashtlar orqali isbot etiladi. Bu asardagi ko'tarilgan jiddiy masala muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Chunki, hayotda yaxshi kasb egasi bo'lish uchun, bilim olish, zahmat chekib kasb o'rganish lozimligini, mehnat qilmay, ilm o'rganmay turib, shon-shuhratga ham, obro'-e'tiborga erishib bo'lmasligini o'quvchiga tushuntirish badiiy adabiyotning bosh vazifasidir.

Dars so'ngida guruhlar baholanadi.

Uyga vazifa: "Bilimsizlik pand beradi" mavzusida insho yozish.

